



SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARI ASOSIDA
INDIVIDUALLASHTIRILGAN TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Raxmonqulova Shaxzoda Baxrom qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Dadmirzayeva Mohidil G'ulomjon qizi – ilmiy rahbar

***Annotatsiya:** So'ngi yillarda raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt (SI) ta'lim tizimiga faol joriy etilmoqda. An'anaviy ta'lim modelida barcha o'quvchilarga bir xil yondashuv qo'llanilishi, ularning individual ehtiyojlari va o'zlashtirish darajasini to'liq hisobga olish imkonini bermaydi. Shu sababli, bugungi kunda individuallashtirilgan ta'limni sun'iy intellekt yordamida tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqola sun'iy intellekt asosida individuallashtirilgan talim tushunchasi, uning o'rni, rivojlanish bosqichlari hamda imkoniyatlarini tahlil qiladi.*

***Kalit so'zlar:** individuallashtirilgan ta'lim, an'anaviy ta'lim, sun'iy intellekt, rivojlanish.*

***Annotation:** In recent years, digital technologies—particularly artificial intelligence (AI)—have been actively introduced into the education system. In traditional education models, applying the same approach to all learners does not allow full consideration of their individual needs, abilities, and levels of mastery. As a result, the issue of organizing individualized education has become increasingly relevant. Therefore, the organization of individualized education through artificial intelligence is gaining particular importance. This article analyzes the concept of AI-based individualized education, its role in the educational process, as well as its stages of development and potential opportunities.*

***Keywords:** individualized education, traditional education, artificial intelligence, development.*



Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va bilim darajasining turlicha bo'lishiga qaramasdan, dars jarayonida ko'pincha umumiy, standart metodlardan foydalanilmoqda. Bu esa ayrim o'quvchilarning bilimni yetarli darajada o'zlashtimasligiga olib kelmoqda. Shu boisdan, ta'lim jarayonini individuallashtirishni ta'minlaydigan zamonaviy mexanizmlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Individual ta'lim - o'qituvchining o'quvchiga pedagogik ta'sirini ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri. O'qituvchining o'quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan faoliyat tushuniladi. Individuallashtirilgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan o'quv va tadqiqot shakli bo'lib, unda har bir o'quvchi ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi. Bu ta'lim tizimini sun'iy intellektga asoslangan holda rivojlantirish ta'lim jarayonini yaxshilash hamda o'quvchilarga samarali bilim olish imkonini beradi, ta'limning uzluksizligini ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt va ta'lim. So'nggi yillarda SI texnologiyalari ta'lim tizimida faol qo'llanilmoqda. SI orqali individual ta'lim tizimini yaratish yuzasidan bir qancha izlanishlar olib borilgan. SIning ta'lim tizimidagi o'rni o'quvchilarni individual o'qitish metodlariga moslashtirilgan zamonaviy metod va usullarni ishlab chiqishga yordam berishi o'rganilgan. Shuning bilan birga, SI imkoniyatlari o'quvchilarni o'qitishda ta'lim jarayonini samaradorligini yanada oshirish va ta'lim tizimini takomillashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Sun'iy intellekt sinfnig ajralmas qismiga aylangani sayin, o'qituvchilar har bir o'quvchi uchun individual ta'lim tajribasini taklif qilish uchun yaxshiroq jihozlangan bo'ladi. The Atlantic ("Sun'iy intellekt barcha uchun moslashtirilgan ta'limni va'da qiladi") maqolasida aytilishicha, sun'iy intellekt "inson o'qituvchilarning dars jadvalini buzmasdan har bir o'quvchiga darslarni moslashtirish qobiliyatini oshirish" salohiyatiga ega bo'lib, o'qituvchilarning "o'rtagacha o'qitish" zaruratini bartaraf etadi, chunki ko'pincha ularning o'quvchilari bir qator malaka darajalari va o'rganish qobiliyatlariga ega bo'lishadi. Biroq aksariyat ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt bo'yicha maakali



kadrlar yetishmasligi va zarur infratuzilmaning yo'qligi SIni ta'lim jarayoniga joriy etish yo'lida muammo bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellektni rivojlantirish yo'nalishlari. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu jarayon quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshirilmoqda:

Birinchi yo'nalish — raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish. Bu yo'nalishda umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida elektron jurnal va kundaliklar, masofaviy ta'lim platformalari, onlayn baholash tizimlari joriy etilib, sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalarni qo'llash uchun zarur texnik muhit shakllantirilmoqda.

Ikkinchi yo'nalish — sun'iy intellekt bo'yicha kadrlar tayyorlash va malaka oshirish. Ta'lim muassasalarida sun'iy intellektga oid fanlar va o'quv kurslari joriy etilmoqda, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv dasturlari tashkil etilmoqda. Bu esa sun'iy intellektli ta'lim muhitini samarali boshqarishga xizmat qilmoqda.

Uchinchi yo'nalish — sun'iy intellekt asosida ishlovchi ta'lim platformalarini joriy etish. Moslashuvchan (adaptiv) ta'lim tizimlari, avtomatik baholash dasturlari, virtual yordamchi va maslahat beruvchi chat-botlar orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta'limni tashkil etish imkoniyati yaratilmoqda.

To'rtinchi yo'nalish — ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, axloqiy tamoyillar va ma'lumotlar xavfsizligi qoidalari ishlab chiqilib, ta'lim jarayonining shaffofligi va ishonchliligi ta'minlanmoqda.

Beshinchi yo'nalish — individuallashtirilgan ta'limni rivojlantirish. Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va o'rganish tezligi



tahlil qilinib, shaxsiy o'quv traektoriyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim modeli joriy etilmoqda.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Mazkur maqolada sun'iy intellekt asosida individuallashtirilgan ta'limni rivojlantirish masalasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim tizimida barcha o'quvchilarga bir xil yondashuv qo'llanilishi ularning individual ehtiyojlarini va o'zlashtirish darajasini to'liq hisobga olishga imkon bermaydi. Shu sababli, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayoniga joriy etilishi o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va o'rganish tezligini aniqlash hamda shaxsiy o'quv traektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellektni rivojlantirish bir necha yo'nalishda amalga oshirilmoqda: raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni SI bo'yicha tayyorlash va malaka oshirish, sun'iy intellekt asosidagi platformalarni joriy etish, normativ-huquqiy bazani shakllantirish va individuallashtirilgan ta'limni rivojlantirish. Ushbu yo'nalishlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilar bilimni samarali va shaxsiylashtirilgan tarzda taqdim etish imkonini beradi.

Biroq, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun bir qator chora-tadbirlar zarur:

pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish,
hududlar kesimida raqamli tafovutni kamaytirish,
mahalliy sun'iy intellekt platformalarini yaratish va amaliyotga joriy etish,
ta'lim jarayonida SI texnologiyalaridan foydalanishning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Shu yo'nalishlarda olib boriladigan ishlar O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellekt asosida individuallashtirilgan ta'limni samarali rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning bilim olish jarayonini uzluksiz va sifatli qilishga xizmat qiladi.



FOYDALANNILGAN ADABIYOTLAR:

1. uz.wikipedia.org
2. Muhammad al-Xorazimiy nomidagi TATU Farg'ona filiali "Al-Farg'oniy avlodlari" elektron ilmiy jurnali ISSN 2181-4252. Tom: 1/ Son:1/ 2025 - yil
3. <https://infocom.uz>